International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

TILSHUNOSLIK SOHASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR, ULARNING SAMARASI VA YECHILISHI KERAK BO‘LGAN MUAMMOLAR



Sunatillayeva E’zoza Ma’ruf qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Psixologiya fakulteti “Filologiya va tillarni o’qitish: ingliz tili’’ ta'lim yo‘nalishi bo'yicha 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: *Sirojiddin Saitov Abduvaliyevich*
O‘zMU Jizzax filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlar va ularning foydalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Hali hanuz o‘z yechimini topmagan va hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro til, turkiy til tarixi, zamonaviy resurslar, tarjimonlik

Hozirgi kunda dunyo xalqlari orasida kuchli raqobat ketmoqda. Ularning har biri o‘z madaniyatlari, tillari, imkoniyatlari va ustunliklari bilan ajralib turishga harakat qilishadi. Bu narsaga erishish uchun esa juda uzun yo‘lni bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi, albatta. Biz O‘zbekiston farzandlarimiz. Shubhasiz, o'z tilimiz, madaniyatimiz va madaniy merosimizni dunyoga mashhur qilish uchun harakat qilmog‘imiz kerak.

Biror bir millat deganda, eng avvalo, uning tili tushuniladi. Nega ? Chunki til butun boshli xalqning ko‘zgusi hisoblanadi. Jahon maydoniga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak "Xalqaro til" degan jumlaga ko‘zimiz tushadi. Ularga misol qilib rus, ingliz, arab, fransuz, ispan va shunga o‘xshash bir qancha tillarni keltira olamiz. Bu tillarning shunday mavqeda turishi ham davlat uchun katta qulaylik keltira oladi. Shu kabi holatlarni ko‘rar ekanmiz, tilning qanchalik muhim ekanligini anglaymiz. Demak, Tilshunoslik va Filologiya jamiyatimizning asosiy negizini tashkil qiladigan sohalardan biri ekan. Hayotimizda katta ahamiyat kasb etadigan naralarga esa ko‘proq va jiddiy e‘tibor qaratishimiz lozim. Shunday bo‘lyapti ham. Xo‘sh, qanday? Hozirgi kunda tilshunoslik va filologiya yo‘nalishlarida qator izlanishlar olib borilmoqda .Ularning aksariyati o'z samarisini ham berib kelyapti.Keling shu haqida fikr yuritsak. Tilshunoslik sohasi deyilganda eng birinchi "Til" ni tushunamiz. Shunday ekan uning vazifasi tilni o'rganish hisoblanadi. Bilamizki, dunyoda barcha tillarning o‘z tarixi mavjud.Ba'zi tillar kelib chiqish jihatidan bir - biriga nisbatan aloqador, ba‘zilari esa butunlay bir ildizdan tarqalgan.Yaqin yillargacha aynan shu narsa mavhum bo‘lib kelayotgan edi. O‘z kasbining ustalari bo'lmish tilshunos vatandoshlarimiz qator ilmiy izlanishlar olib borib, ko'plab jumboqlarning tagiga yetishgan Bular: I.Nizomiddinov, I.Ismatov , S.Kamoliddinov, A Mamadaliyev va hk. Bu shaxslar turkiy tilimizning qaysi tillar bilan aloqadorligi, kelib chiqishi va ta'siri kabilarni o‘rganishgan. Ancha paytgacha shu kabi masalalar borasida aniq bir to‘xtam yo‘q edi. Hozirda esa ularning fanga qo‘shgan hissalari orqali bemalol ma‘lumotlar olishimiz mumkin.Bu narsani bilish juda ham ahamiyatli aslida. Chunki biz o‘z tilimizning tarixini bilmasdan turib uni

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

dunyo tillari qatoriga qo'sha olmaymiz.Shunday ekan bosqichma-bosqich bu maqsad sari qadam tashlayapmiz deb ayta olamiz.

Biz biror bir tilni o‘rganishni istasak, shubhasiz, bu jarayonning osson bo‘lishini istaymiz.Bu esa nafaqat til o'rganuvchiga, balki, til egalariga ham bog'liq. Qanday deysizmi? Kitoblardan va manbalardan foydalanayotgan paytimizda tushunishga osson va qulay kitoblar bilangina bu jarayonni ossonlashtira olamiz. Bizku chet tillarini o‘rganishga harakat qilarmiz.Lekin o‘zga davlat vakillari ham o‘zbek tilini o'rganishni istashyaptimikin. Hoxlashgan taqdirda ham yetarlicha sifatga ega resurslarimiz bormi? Shu muammo ham ancha dolzarblaridan biri, afsuski. Lekin bu masalalar ham sekin astalik bilan o‘z yechimini topmoqda. Avvallari faqatgina grammatikadan iborat, tushunishga qiyin va samarasi kam kitoblar ko‘p edi. Bu kitoblar nafaqat chet ellik o'rganuvchilar uchun qiyinlik tug'diradi, balki, o‘zbek tili o’z ona tili hisoblanadigan ona vatanimiz farzandlariga ham tushunishga osson emas edi. Hozir esa psixologik, lingvistik va kreativlik jihatlarni inobatga olgan holda butunlay yangi turdagi kitoblari ishlab chiqilmoqda va ular eskilarining o‘rnini egallab boryapti. Bu esa tushunishni va o‘rganishni ancha ossonlashtiradi. Demak bu sohadagi muammolar ham sekinlik bilan hal qilinmoqda ekan. Bularning barchasi, shubhasiz, tilshunoslik yoki filologiyaning negizini tashkil qiladi.

Ayrim izlanishlar o‘z samarasini berishga beryapti, ammo yechilishi kerak bo‘lgan tugunlar ham talaygina..Hozirgi kunda yurtimizda asar tarjimasiga talab katta. Chunki e'tibor beradigan bo‘lsak, zamonaviy ma’lumotlarning 95 % i ingliz yoki boshqa chet tillarida ommaga taqdim etiladi. Hamma ham o'z yurti rivojlanishini istaydi. Buning uchun esa har bir soha egalari o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Ammo chet tilida yozilgan ma'lumotlarni hamma ham tushunavermaydi.Bunda ularga tarjimonlar, lingvistlar, filologlar— bir biriga yaqin va o‘xshash soha vakillari yordamga keladi. “Tilshunos”, “filolog” va “lingvist” atamalari bir-biriga yaqin sohalarga taalluqli bo‘lsa-da, ularning o‘rtasida muayyan farqlar bor:

Tilshunos o‘zbek tilida kengroq qo‘llanadi.Tilning umumiy xususiyatlarini o‘rganuvchi shaxs.Tilning tuzilishi, grammatikasi, lug‘at tarkibi, fonetika va boshqa sohalarini o‘rganadi.

Lingvist yoki filologni ham tilshunos deb atash mumkin, lekin ularning o‘z yo‘nalishlari bor. Filolog-matnlar va adabiy asarlarni tahlil qilishga ko‘proq yo‘naltirilgan.Tilni o‘rganishdan tashqari, adabiyot, madaniyat va tarix bilan bog‘liq jihatlarni ham qamrab oladi.Tarixiy matnlar yoki yozma asarlarning tahlili bilan shug‘ullanadi.Filologiya keng qamrovli soha bo‘lib, tilshunoslik va lingvistika uning tarkibiy qismlaridan biridir.

Lingvist-Fan sifatida zamonaviy tilshunoslikka yaqin.Tilning nazariy va ilmiy jihatlarini chuqurroq o‘rganadi.Tilning sintaksisi, semantikasi, fonologiyasi va morfologiyasi kabi texnik sohalariga e’tibor qaratadi.Lingvistlar tilning mantiqiy tuzilishi, uni qanday ishlashi va rivojlanishi haqidagi masalalarni o‘rganadi.

Asosiy farqlar esa quyidagicha:

Filolog: Til va adabiyotni birga o‘rganadi, madaniy jihatga ko‘proq e’tibor beradi.

Lingvist: Tilning ilmiy va texnik xususiyatlarini o‘rganadi, nazariy yondashuvga ega.

Tilshunos: Keng ma’noda tilni o‘rganuvchi, bu atama lingvist va filologga nisbatan umumiyroq hisoblanadi.

Uchala soha bir-biriga yaqin va bir-birini to‘ldiradi, lekin yo‘nalishlari biroz farqlidir. Tilshunoslik ularni umumlashtirgan tushuncha desak bo‘ladi.

Xo'sh, ularning zamonaviy dunyomizda asosiy vazifasi qanday? Aslida yurtimizning rivojlanishi uchun ularning o‘rni muhimroqdir. Nega deysizmi ? Chunki biror bir sohaga oid ma‘lumotlarni tarjima qilish bilan ular shug‘ullanishadi. Kundan kunga ilmiy tadqiqotlar va tajribalar olib borilayotgan jahon maydoniga barcha ma‘lumotlar chet tilida. Ularni sifatli tarjima qilishsagina xalqimiz foydalana olishadi. Hozir ham sifatli tarjimalar yo‘q emas. Lekin yetarli darajada ham emas. Ularni to‘g‘ri va foydali tarjima qilishning esa o‘ziga xos qoidalari mavjud. Aslida bu juda ham murakkab jarayon. Misol uchun, psixologiyaga oid kitobni tarjima qilmoqchisiz. Tilni bilsangiz bo'ldi, bemalol to‘g‘ri va sifatli tarjima qila olasiz degani emas. Avvalo, bu sohaga oid talaygina ma'lumot to‘plash kerak bo'ladi. Atamalar, tushunchalar va shu kabi asosiy narsalarni o‘rganish esa juda ham ko'p vaqtni oladi. Tarjima jarayonida tarjimon qaytadan o‘zi uchun yangi bo'lgan sohani o‘rganib chiqadi deb ayta olamiz. Bundan tashqari hamma davlatning o'ziga xos madaniyati va uslubi bo'ladi. Tarjimaning sifatli bo‘lishida esa tarjimon aynan o‘sha o'lkaning madaniyatini ham chuqur anglagan bo‘lmog‘i darkor. Chunki uni xalq mintalitetiga moslashtirilgandan so‘ng o‘quvchilar uchun ancha osson bo'ladi. Shundan kelib chiqib tarjima jarayonini qaytadan san‘at asari yaratish deb ayta olamiz.

Aslida tilshunoslik borasida juda ham ko‘p samarali tadqiqotlar olib borilgan. Ayrimlari kutilganidan ham a'lo samara bergan. Bu kabi izlanishlar ona tilimizning yanada sifatli va mustahkam bo‘lishiga yordam beradi, albatta. Shu bilan birga yechilishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud. Ular esa bosqichma bosqich hal qilib borilmoqda. Zero bu harakatlarning barchasi ona tilimizning kelajagi va ravnaqi uchun muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.K.Solijonov “Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismlar”
2. Komissarov. V.N “Tarjima nazariyasi” M.: - Высшая школа – 1990
3. Latishev L.K “Tarjima: tarjima nazariyasi, amaliyoti va metodikasi muammolari M.: Ma’rifat,1988
4. Latishev L.K “Tarjima tehnologiyalari” M.: - Akademiya 2008
5. Nelyubin L.L “Tarjimaning izohli lug’ati” M.: - Fan, 200 9. Ma’ripov J. Antroposentrizm–tilshunoslikning zamonaviy yonalishi sifatida
6. Zohidjon Sodiqov va Dilrabo Abduraxmonova “tarjimashunoslik terminlarining ko’ptilli lug’at-ma’lumotnomasi’’